

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

## O'QUVCHILAR KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI

**Xamidova Zaynura Ramazonovna**

O'zbekiston Milliy universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda kreativlik qobiliyatining kelib chiqishi, uning shakllanishi, ma'nasi va uning ahamiyati xususida fikr va mulohazalar yuritilgan. Kreativlik qobiliyatini shakllantirish zamon talabi ekanligi hamda ushbu qobiliyatni shakllantirishda zamonaviy innovatsion ta'lim metodlari va foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, qobiliyat, ta'lim, tarbiya, metodika, ilm, aql, ijodkorlik, model.

Jahon ta'lim tizimi tajribasida mutlaqo yangilik bo'lgan Ta'limning milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. singari 5 tarkibiy qismdan iborat. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida Ta'limning milliy modeli tarkibiy qismlari ta'riflanib, ularning asosiy vazifalari belgilab berilgan. Jumladan, shaxs — kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Ta'limning milliy modelining o'ziga xosligi tarkibiy qismning boshlanishidayoq yaqqol namoyon bo'ladi. Unda shaxsga ta'limning iste'molchisi, ya'ni obyektigina emas, balki uni amalga oshiruvchi, ya'ni ta'lim jarayonining subyekti sifatida ham qaraladi. Bu hol shaxsni ta'limning iste'molchisidan bu jarayonning ijrochisiga aylantiradi, uning faolligini oshirib, rivojlanishini tezlashtiradi.

Ta'limning milliy modelini ham zamon talablariga moslashtirish STEAM kabi yangi texnologiyalarni joriy qilish asosida milliy modelni rivojlantirish zaruriyati bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Ta'limning rivojlanishi mamlakatning kelajakdagi o'rni va rolini jahon hamjamiyatidagi o'rni va obro'sini ko'rsatib beradi.

"Kreativlik" tushuncha sifatida G'arbda XIX asrning 30- yillarida paydo bo'lgan. Ushbu muammoni o'rganishning falsafiy jihati Platon va Aristotelga borib taqaladi. Agar Aflotun inson (birinchi navbatda, san'at ahli): ilhomni, ijodiy g'oyalarni xudolardan oladi va ularni hayotga yo'naltiradi, deb hisoblasa, Aristotel ilhom manbalarining aqliy birlashmalari natijasida paydo bo'ladi degan g'oyasini ilgari suradi.

XX asr boshlariga kelib, G'arbda ko'plab mualliflar va butun ilmiy maktablar kreativlikni o'rganish bilan shug'ullangan. Yeduard Tuluza taniqli odamlarning qobiliyatlarini o'rgandi, kreativlik va ma'lum bir psixologik zaiflik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi.

Amabile kreativlikka asoslangan uchta komponentni belgilaydi: motivasiya, sohaga xos qobiliyatlar va kreativlik bilan bog'liq jarayonlar (kognitiv uslublar, evristika, ish uslubi).

Sternberg va Lubartning fikriga ko'ra, kreativlik olti turdagi resurslarni talab qiladi. Bular aql, bilim, shaxsiyatning kognitiv uslublari, motivasiya va atrof-muhitning jismoniy va ijtimoiy rag'batlantirishni ta'minlovchi jihatlari bo'lib, ular g'oyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Bugungi tezkor davrda boy tasavvurga, ijodkorona g'oyalarga, keng ma'noda kreativ sifatlarga ega bo'lmay turib, ko'zlagan maqsadga erishib bo'lmaydi desak, adashmagan bo'lamiz.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda kreativlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Kreativlik lotincha "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi ijodkor ya'ni shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Эрнazarова Г.О., Якубова М.Ю. Талабаларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари// Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача, сборник тезисов Международной конференции, Самарканд, 2021 г. 198- 199 стр.

Respublikamiz olimlari tomonidan kreativlik sifatлари, kreativ o'qitishning mazmun mohiyati, pedagogik, psixologik va falsafiy nuqtai nazardan ko'p qirrali xususiyatlari bo'yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Kreativlikni o'rganish bo'yicha pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklari va yondashuvlarni inobatga olib, "pedagog kadrlarning kreativligini: faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda ko'rib chiqish lozimligi"ni A.Aripjanova o'z qarashlarida aniqlagan<sup>2</sup>.

Sh.Pozilova esa tadqiqot ishida "kreativlik deganda shaxsning nostardart fikrlashi natijasida yangi, original g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati" degan xulosani beradi<sup>3</sup>. Z.T.Nishanova o'zining doktorlik dissertasiyasida kreativlikning ko'plab ta'riflarini tahlil qilib, ijodiy fikrlashning modelini yaratadi. U "ijodiy fikrlashni tasavvur, tushuncha, bilim, ko'nikma, fikr, e'tiqod va motivasiyaga asoslangan holda amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydi"<sup>4</sup>.

Zamonaviy talablar va xorij tajribalarini o'rganish asosida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

"Kreativlik" tushunchasiga turlicha talqin berilgan. J.Gilford kreativlikni shaxsning g'ayrioddiy universal ijodiy qobiliyati, an'anaviy fikrlash sxemasidan farq qiladigan g'oyalar sifatida tushungan. K.Simpson - ijodiy fikrlashni kuchaytirishga yordam beradigan qobiliyatlar va boshqa xususiyatlarning kombinatsiyasi sifatida ta'riflagan. S.L.Rubinshteyn kreativlikni subyektning faoliyati sifatida ta'riflagan, bu jarayonda yangi, o'ziga xos narsa yaratiladi, u ijodkorning rivojlanish tarixiga va fan, san'at va boshqalarning rivojlanish tarixiga kiradi. D.B.Bogoyavlennayaning ta'rificha - nafaqat har qanday faoliyatni eng yuqori darajada bajarish, balki uni o'zgartirish va rivojlantirish qobiliyati sifatida talqin qilish mumkin.

J.Gilford dastlab kreativlikning to'rtta asosiy parametrini ajratib ko'rsatdi:

- 1) o'ziga xoslik;
- 2) semantik moslashuvchanlik;
- 3) obrazli moslashuv moslashuvchanligi;
- 4) semantik spontan moslashuvchanlik.

P.Torrensning so'zlariga ko'ra, kreativlik muammolarga o'ta sezgirlik, bilimlarning yo'qligi yoki nomuvofiqligi, bu muammolarni aniqlash bo'yicha harakatlar, farazlar asosida ularning yechimlarini izlash, farazlarni sinab ko'rish va o'zgartirish, yechim natijasini shakllantirishni o'z ichiga oladi<sup>5</sup>.

Kreativlik bugungi zamon talablaridan biridir. STEAM ta'lim texnologiyasi aynan ijodkorlikni yangi g'oyalarni ixtiro qilishni shakllantirib beruvchi texnologiyalardan hisoblanadi. Aynan ushbu texnologiya kreativlik qobiliyati va innovation texnologiyalarni yaratishga imkoniyat beradi. So'ngi yillarda yetakchi xorijiy davlatlar va mamlakatimizda ta'lim tizimini oldiga kreativ fikrlaydigan yoshlarni yetishtirib berish masalasini qo'ygan. O'qituvchilar kreativ yondashuv asosida o'quvchiarda ham kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish zarurdir. O'quv jarayonini oldindan rejalashtirishdan voz kechib yangi texnologiya STEAM ta'lim texnologiyasidan foydanish zarurdir. Ushbu texnologiya o'quvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish ularni ijodiy fikrlashga, yangi g'oyalarni o'ylab topishga, yutuqlarga erishishga asosiy omil bo'ladi.

Aynan STEAM ta'limi natijasida bugungi kunda yangi kasblar shakllanishiga olib keldi shu sababli ushbu texnologiya ta'lim makonida mustahkam joylashdi. STEAM ta'limi turli hil

2 Aripjanova A. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. p.f. f. d. (PhD) disser. avtoref. – T.: -2017.

3 Pozilova Sh.X. Oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi. Pedagogika yo'nalishi bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser. – T.: -2019. - b 22.

4 Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psix. fan. dok. ...diss. T.: 2005. - 97 b.

5 Torrance E.P. The nature of creativity as manifest in the testing / E. P. Torrance. - Cambridge : Cambr. Press, 1988. - P. 43-75., 54-bet

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

DEKABR

ANDIJON, 2024

amaliy loyihalarga asoslangan ta'lim bo'lgani sababli o'quvchilar muammolarni boshqarish, ijodiy qobiliyatlarini ishga solishga dav'at etadi. Muammolarni hal etishda ijodiy qobiliyatlaridan foydalanishi natijasida kreativlik qobiliyatini shakllanishiga olib keladi. STEAM ta'limida so'rov jarayoni o'quvchilarni qiziqishini uyg'otadi va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash orqali ijodiy fikrlarni yaratishga olib keladi. Bundan tashqari bu texnologiya o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilish va hamkorlik qilish qobiliyatini shakllantiradi. STEAM faoliyati o'z ichiga olgan ijodkorlik bo'yicha o'quv kursining ishlab chiqishga va sinab ko'rishga qaratilgan. STEAM ta'limi uchta qismdan iboratdir.

Birinchi qismda: Asosiy g'oyalar shakllanadi ya'ni nazariya orqali o'quvchilarga aniq tushunchalar beradi. Ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Ikkinchi qismda: ijodkorlik g'oyalarini shakllantiruvchi texnologiyalar bilan ishlaydi. Ijodkorlikni rivojlantiruvchi texnologiyalar va metodlarga o'qitiladi.

Uchunchi qismda: turli fanlar bo'yicha faoliyat bilan shug'ullanish orqali talabalar turli vaziyatlar orqali amaliyot orqali ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Ijodkorlik XXI asrda muhim mahorat hisoblanadi. Misli ko'rilmagan o'zgarishlar davrida kelajakdagi ishlarda muvofaqiyatga erishish uchun yoshlarni ijodkorligini ya'ni turli sohalaridagi muammolarni xal qilishda kreativ qobiliyatlarini shakllantirish zarurdir. Bu kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda STEAM ta'limining o'rni va roli ahamiyatlidir. Shu sababli umumta'lim maktablarida bu texnologiyani bosqichma-bosqich joriy qilish uning STEAM texnologiyasini modullar asosida rivojlantirish bugungi kunda dolzarbdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Эрназарова Г.О., Якубова М.Ю. Талабаларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари// Педагогические и лингвопсихологические особенности развития, формирования и становления личности врача, сборник тезисов Международной конференции, Самарканд, 2021 г. 198- 199 стр.
2. Aripdjanova A. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. p.f. f. d. (PhD) disser. avtoref. – T.: -2017.
3. Pozilova Sh.X. Oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi. Pedagogika yo'nalishi bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser. – T.: -2019. - b 22.
4. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psix. fan. dok. ...diss. T.: 2005. - 97 b.
5. Torrance E.P. The nature of creativity as manifest in the testing / E. P. Torrance. - Cambridge : Cambr. Press, 1988. - P. 43-75., 54-bet